



“DUNYONING ISHLARI” ASARIDA ONA OBRAZI TASVIRI VA BADIYY MAHORAT

Astanova Gulnora Aminovna

BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası professori, f.f.d.

guli4803@mail.ru

Hojiyeva Dildora Raxmiddin qizi

BuxDU Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

hojiyevadildora05@gmail.com

Annotatsiya: *Ona siymosi dunyodagi barcha xalqlar uchun muqaddas va mo'tabardir. Ularni birlashtirib turuvchi mushtarak fazilatlar bisyor. Lekin ayni vaqtda har bir xalqqa, millatga mansub ona siymosi o'z fe'l-atvori, tabiati, ichki va tashqi dunyosi hatto, portreti bilan muayyan darajada farqlanib turadi. “Odamning qalbida qanday oliyjanob tuyg'ular mavjud bo'lsa, ularning barchasi avvalo onadir. O'zbek adabiyotida ona obrazining go'zal va betakror namunalarini yaratgan yozuvchilardan biri O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovdir. Ushbu maqolada yozuvchi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub “Dunyoning ishlari” qissasi haqida fikr yuritiladi. Unda yozuvchinig ona obraziga bergan chizgilari badiiy mahorat sifatida baholanadi. Muallifning asarga ona obrazi orqali bergan bezagi ilmiy mushohadaga jalb etiladi.*

Kalit so'zlar: *Badiiy asar, tahlil, tadqiq, ona, burch, alla, mentalitet.*

Kirish. O'zbek adabiyotida ona obrazining go'zal va takrorlanmas namunalarini yaratgan yozuvchi va shoirlar talaygina. O'tkir Hoshimov va Said Ahmad ham ular sirasiga kiradi. Har ikkala adibning asarlarida Ona siymosi shu qadar muhim o'rin tutadiki, ularsiz yozuvchilarning ijodlarini tassavur etib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazarda O'tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi kitobxonlar qalbidan chuqur joy egallangan asar sifatida qadrli. Qissa haqida O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad shunday degandi: “Dunyoning ishlari” asarinini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo'shiqday o'qiladi. Uni o'qib turib o'z onalarimizni o'ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo'lmas qarzlrimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko'z oldimizda ko'ndalang turib oladi. Qissa bizni insofga, insonni qadrlashga, hurmat qilishga chaqiradi”¹.





“Dunyodagi eng bebaho, ammo hamisha benazir tarqatiladigan xazina bor. Bu-ona mehri!” Oʻtkir Hoshimov onalarning mehr-muhabbatini xuddi shunday goʻzal inju soʻzlar bilan taʼriflaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Oʻtkir Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarini Onalarga bagʻishlab yozgan boʻlib u asarning ichida buyuk bir xilqat, onalarimiz siymosi-yu butun hayot tashvishlarini boshidan oʻtkazib bu haqida bir ogʻiz ham nolimagan, har bir nigohdan, har bir inson zoti-yu har bir hodisadan yaxshilik, mehr-muruvat izlagan qalbi daryo feʼli keng, qalbi nozik, oʻzi mehnatkash, halol, pokiza onalar haqida bu asar.

Oʻtkir qalam sohibi, betakror yozuvchi Oʻtkir Hoshimovning mashhur asarlaridan biri “Dunyoning ishlari” kitobidir. “Onalarimizning biz tushunmaydigan, bizning oʻlchovimizga sigʻmaydigan oʻz olamlari bor”² - deydi asar muallifi. Qirq yil muqaddam yozilgan Oʻtkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi ushbu taʼkidning dalili sifatida keltirilishi mumkin. Oʻzining adabiy janriga koʻra qisqa hayotiy qissalarning jamlanmasi koʻp hollarda insholar yigʻindisiga qiyoslanishiga qaramasdan ushbu “doston”³ oʻz ichiga nafaqat muallifning onasi haqidagi fikr-mulohazalari va ichki kechinmalari, balki zamonning uning atrofida insonlarning ichki va tashqi koʻrinishlariga bagʻishlangan. Qissadagi “Ona” obrazi muallifning faqatgina oʻtgan voqealarni tasvirlash bilan chegaralanib qolgan yoki oʻz onasi timsolida ideal ona obrazini tadbqiq etishga harakat qilgan deb taʼkidlash oʻquvchining asarni toʻliq oʻqib tushunchaga ega boʻla olmaganidan dalolat beradi. Muallifning onasi oʻz harakatlari, qarashlari, fikr-mulohazalari bilan aynan sharq ayoli obrazini toʻliq tasvirlaganini yaqqol koʻrishimiz mumkin.

Oʻtkir Hoshimov “Dunyoning ishlari” qissasida Sepkilli xola, Zebe xola, Bashorat xola, Acha xola, Amma, Risolat opa, Habiba buvi singari obrazlarga murojaat qiladi va ularni estetik markaz ona siymosi atrofida jamlaydi. Eʼtiborli jihati muallif ayollarning turfa yosh-mantiqiy uzviylikda tasvirlanishi, kasb-hunar nuqtai nazaridan rang-barangligi oʻzbekona turmush-tarzini toʻlaroq tasvirlash imkonini beradi. Har bir qahramon oʻzida aks etgan “gʻoyaviy yuk”ni badiiy chizgilar bilan toʻldirib boradi.

<https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/adabiyot/dunyoning-ishlari-asarining-psixologik-bayon-i>

² Ahmad, S. Dunyoning ishlari haqida [elektron kitob] // <http://kutubxonachi.uz/documents/asar/adabiyot/o-zbek/pdf/o-tkir-hoshimov//dunyoning-ishlari-qissa/#gsc.tab=0>

³ <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/otkir-hoshimov-dunyoning-ishlari-asardan-osti-c-hizilgan-parchalar.html>





Asardagi hikoyalar turli voqealar bayoniga bag'ishlangan bo'lsa-da, ularda ona-Hakima aya obrazi tutashtiruvchi ip bo'lib o'tadi. Voqealar rivoji bevosida yoki bilvosita tarzda ona taqdiriga borib taqaladi.

“Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko'z oldimga keladi...”⁴ “Dunyoning ishlari” kitobining bir bobi shunday so'zlar bilan boshlanadi. Har qanday badiiy asarda ham ma'lum ma'noda muallif tarjimai holining bir bo'lagi bo'ladi. Sababi yozuvchi o'z asariga qalbini bag'ishlaydi. Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz odam onam siymosi bor Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan onamga bag'ishlangan”.

Ona timsoli dunyodagi barcha xalqlar uchun muqaddas va mo'tabardir. O'z bolasi uchun jonidan ham kechadigan ona holatini ushbu asarning “Gilam paypoq” hikoyasida kuzatishimiz mumkin.

“O'shanda necha yoshligim esimda yo'q. Biroq juda kichkina edim. Bir kuni akalarim bilan yaxmalak o'ynab terlab ketdim. Terlab muz yedim. Kechqurun isitma ko'tarildi. Quv-quv yo'talaman. Oyim tomog'imni achchiqtosh bilan chayib ko'rdi, bo'lmadi. Oxiri tomog'im xippa bo'g'ilib qoldi. Og'riqni sezmayman-u nafas olishga qiynalaman. Hushimdan keta boshlaganimni es-es bilaman. Qulog'im ostida onamning chirqillab yig'lagani hadeb bir gapni qaytarayotgani eshitiladi:

-Voy endi nima qilaman! Voy bolam o'lib qoladi!”⁵

Ona mana shunday zotki, hamisha bolasini o'ylaydi. O'tkir Hoshimov ona timsolini yuqori nuqtaga ko'targan ma'rifatparvar ijodkordir.

Ona har doim farzandi g'amida kun o'tkazadi, mudom uning tashvishi bilan yashaydi. Asarning “Tush” hikoyasida onaning shunday holatini kuzatamiz. “Bir kuni o'rtoqlarim bilan restoranga borgandik kechgacha qolib ketdim. Uyga qaytganimda kayfim bor edi. Darvozani onam ochdi. Sovuqda mushdekkina bo'lib dildirab turibdi.

-Shu vaqtgacha uxlamadingizmi? –dedim zarda qilib . –Eshik ochishga sizdan boshqa odam yoqmi?

Onam ma'yus jilmaydi

-Uyqu qatta bolam? O'-otiribman”.

Ona qachon xotirjam bo'ladi? Qachonki, bolalari bir-biri bilan ahil-inoq, mehr-oqibali bo'lgandagina qalbi sakinat topadi. “Haqqush” hikoyasida bu yaqqol o'z ifodasini topgan. Dunyo tashvishi deb mushtipar onamizga vaqt ajratmas ekanmiz,

⁴ Hoshimov, O'. (2018). Dunyoning ishlari. Qissa.-T.:O'qituvchi

⁵ Hoshimov O'. Dunyoning ishlari.





vaqtida qadrlamas ekanmiz-u lekin manashu qizg'angan vaqtimiz kun kelib bizlarni yqinlarimizdan ajratib qo'yanini sezmay qolar ekanmiz. Asarda onani ulug'lash g'oyasi ang muhim maqsad qilib qo'yilgan. Bu esa o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan fazilat.

“Dunyoning ishlari” qissasining “Surat” hikoyasida dunyo bilan ovora bo'lib onasi bilan suratga tusholmagan yigit holati tasvirlangan. Asarni aynan adabiy jihatdan emas, balki chuqur ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, zamonning, atrof-muhitning va hayot tarzining ta'siri insonga qanchalik kuchli bo'lmasin, jamiyatning fazilatlari o'zgarishsiz qolishiga amin bo'lishimiz mumkin.

“Tasalli” hikoyasida, onasini so'nggi manzilga kuzatgan farzand kechinmalari yozilgan. Onasini qabrga qo'yguncha jala tinmagan, qabrga qo'ygandan so'ng quyosh charaqlab ketgan shu hodisadan ham bir ma'no, bir yupanch izlagan farzand dunyoda yaxshi insonlar ko'pligini, shu insonlar ichida onasi ham borligini, bunga tabiat ham amin ekanligini tushunadi. Nami qurib ulgurmagan tuproq uyumiga tikilgancha uyga toladi.

Bo'ldi endi, bolam! Bunaqada o'zingizni oldirib qo'yasiz”, dunyoning ishlari shu ekan”, iloj qancha?

“Ilgarilari bir haqiqatni bilardim. Ona uchun bolaning katta-kichigi bo'lmaydi. Endi yana bir haqiqatni angladim. Bola uchun ham onaning katta-kichigi bo'lmas ekan. Ona-ona ekan. Unga boshqa sifat kerakmas”⁶

Xulosa. Qissada yoritilgan g'oya va mazmun ma'lum. Unda ilgari surilgan masala - validani kech bo'lmasdan ilgari qadrlash, roziligini olish. Maqsad hamma zamon va makon uchun birday muhim. Yozuvchining badiiy mahorati esa barchaga tanish bo'lgan muammoni kitobxonga yuksak did bilan yetkaza olish. O'tkir Hoshimov buni uddasidan chiqa olgan buyuk adib.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/adabiyot/dunyoning-ishlari-asarining-psixologik-bayoni>
2. Ahmad, S. Dunyoning ishlari haqida [elektron kitob] // <http://kutubxonachi.uz/documents/asar/adabiyot/o-zbek/pdf/o-tkir-hoshimov//dunyoni>

⁶ Hoshimov O'. Dunyoning ishlari: Qissa va hikoyalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2015.8-bet.





[ng-ishlari-qissa/#gsc.tab=0](#)

3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/otkir-hoshimov-dunyoning-ishlari-asardan-osti-chizilgan-parchalar.html>

4. Dunyoning ishlari: Qissa va hikoyalar / O`tkir Hoshimov. – T.: Yangi asr avlodi, 2015.8-bet

